(18). Zhao J., et al. Decoding the neural dynamics of headed syntactic structures. Journal of Neuroscience (2025).

(19). Information Restricted Neural Language Models Reveal Different Brain Regions' Sensitivity to Semantics, Syntax and Context. arXiv (2023).

(20). Estimating the strength and timing of syntactic structure building in naturalistic reading. arXiv (2025).

Anorboyeva Dilshodabonu Shavkat qizi (Qo'qon universitetining Andijon filiali o'qituvchisi; e-mail:dilyushaanarboyeva.@gmail.com)

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TEGINISH SEZGISI BILAN BOG'LIQ LEKSEMALARNING KOGNITIV VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida teginish (taktil) sezgisini ifodalovchi leksemalar lingvokognitiv va lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Teginish sezgisi insonning borliqni idrok etishida muhim o'rin tutib, til orqali nafaqat jismoniy hissiyotlar, balki emotsional va madaniy ma'nolarni ham ifodalaydi. Tadqiqotda ikki til materiallari qiyosiy jihatdan o'rganilib, umimiy va milliy-madaniy xususiyatlar aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *teginish sezgisi, taklif leksemalar, lingvokognitiv tahlil, lingvokulturologiya, qiyosiy tilshunoslik.*

Анорбоева Дилшодабону Шавкат кизи (преподаватель Андижанского филиала Кокандского университета; e-mail: dilyushaanarboyeva.@gmail.com)

ЛИНГВОКОГНИТИВНОЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ, РЕПРЕЗЕНТИРУЮЩИХ ОСЯЗАТЕЛЬНОЕ ВОСПРИЯТИЕ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В статье проводится анализ лексем, репрезентирующих осязательное (тактильное) восприятие в английском и узбекском языках, с позиций лингвокогнитивного и лингвокультурологического подходов. Осязание рассматривается как одна из ключевых форм чувственного познания действительности, посредством которой язык отражает не только физические ощущения, но и эмоционально-оценочные и культурно обусловленные смыслы. В рамках исследования осуществляется сопоставительный анализ языкового материала двух языков, в результате чего выявляются как универсальные, так и национально-культурные особенности.*

Ключевые слова: *осязательное восприятие, тактильные лексемы, лингвокогнитивный анализ, лингвокультурология, сопоставительное языкознание.*

Anorboeva Dilshodabona Shavkat kizi (Lecturer at the Andijan branch of Kokand University; e-mail:dilyushaanarboyeva.@gmail.com)

COGNITIVE AND LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF LEXEMES ASSOCIATED WITH THE SENSE OF TOUCH IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation. *The article presents an analysis of lexemes representing tactile perception in the English and Uzbek languages from linguocognitive and linguocultural perspectives. The sense of touch is viewed as a fundamental mode of human perception of reality, through which language conveys not only physical sensations but also emotionally evaluative and culturally conditioned meanings. The study employs a comparative analysis of linguistic material from both languages, identifying both universal and national-cultural features.*

Keywords: *tactile perception, tactile lexemes, linguocognitive analysis, linguoculturology, comparative linguistics.*

Kirish. So'nggi yillarda til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar, xususan, lingvokognitiv va lingvokulturologik yo'nalishlar tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Inson sezgilari–ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va teginish – til orqali konseptuallashtiriladi. Ular orasida teginish sezgisi eng qadimgi va universal sezgilardan biri bo'lib, insonning atrof-muhit bilan bevosita aloqasini ta'minlaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarni lingvokognitiv va lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilish, ularning semanik maydoni va madaniy yuklamasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Lingvokognitiv yondashuv. Lingvokognitiv tilshunoslik til birliklarini inson ongidagi bilimlar, konseptlar va tajribalar bilan bog'liq holda o'rganadi. Teginish sezgisini ifodalovchi leksemalar insonning jismoniy tajribasi asosida shakllanib, ko'pincha, abstrakt tushunchalarni ifodalashda metaforik vosita sifatida qo'llanadi. Masalan, ingliz tilidagi *soft, hard,*

rough so‘zlari nafaqat fizik xususiyatni, balki xarakter va munosabatlarni ham ifodalashi mumkin (*soft heart, hard decision*). O‘zbek tilida ham yumshoq, qattiq, dag‘al kabi leksemalar shu kabi kognitiv kengayishga ega.

Lingvokulturologik yondashuv. Lingvokulturologiya til birliklarida aks etgan milliy madaniyat, qadriyat va an’analarni o‘rganadi. Teginish sezgisi bilan bog‘liq leksemalar muayyan xalqning mentaliteti va madaniy stereotiplarini namoyon etadi. Masalan, o‘zbek madaniyatida *iliqlik* va *mehr* tushunchalari, ko‘pincha, teginish bilan bog‘liq metaforalar orqali ifodalanadi.

Ingliz tili izohli lug‘atlari ustida o‘tkazilgan tahlillar teginish sezgisini ifodalovchi leksemalar polisemantik xususiyatga ega ekanligi va ular alohida olinganda ham, so‘z birikmalari va frazeologik birikmalar tarkibida kelganda ham turli-tuman ma’nolarni kasb etishlari mumkinligini ko‘rsatadi. Bu hol teginish sezgisini ifodalovchi leksemalar bilan bog‘liq qator ma’nolar orasida ulardan qay biri invariant simmetrik yoki asimmetrik, umumiy ma’no bo‘la olishini aniqlashda qiyinchiliklar tug‘diradi. Shuni inobatga olgan holda, lug‘atlarda ro‘yxatga olingan teginish sezgisini ifodalovchi leksemalar bilan bog‘liq morfologik va sintaktik tuzilishga ega birliklarni ma’noviy nuqtayi nazardan tahlil etishni lozim [16].

Teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning aniqlashda tashqi ta’sirni qabul qilish qobiliyati va shu ta’sirdan yuzaga keladigan holatni ifodalovchi: ingliz tilida: *Touch, contact, feel, avoid, ignore*; o‘zbek tilida: hislamoq, tegmoq, teginmoq, tekizmoq, ushlamoq, tutmoq kabilar tahlilga tortildi.

Biz ingliz va o‘zbek tillarida teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning tahlil qilishda ushbu mavzuga aloqador bo‘lgan so‘zlarni so‘z turkumlari kesimida guruhladik.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) 1. Ot so‘z turkumiga oid bo‘lgan leksemalar: ingliz tilida: *press, tap, pat, nudge, prod, poke, push, glance, flick, stroke, brush, graze, pressure*; Masalan: We were told to push our feelings down, not to embrace them (Vanessa Etienne. Peoplemag, p. 23); o‘zbek tilida: tirgak, tirgov, tirgovich, tirgovchi, ushlovchi, hissiyot kabi: Masalan: Bir kun pushaymon bo‘lmagin, deyman. Tilmochning qozikalonday tirgovichi bor, bilib qo‘y (Oybek, “Ulug‘ yo‘l”. 45-b.). [12].

2. Fe’l so‘z turkumida. Ingliz tilida: *Touch, sontact, feel, avoid, ignore, handle, hold, pick up, move, meddle with, play (about/around) with, toy with, fiddle with, interfere with, tamper with, disturb, harm*: Masalan: Wait until the unit is cool to touch and only fill to the fill mark (John Sass, “Field & Stream”, 3 Aug. 2023) [7]. O‘zbek tilida: tegmoq, tegizmoq, teginmoq, tegishlik, ushlamoq, tutmoq, saqlamoq, qo‘zg‘amoq, tutqazmoq, ushlatmoq, tutinmoq, ovlamoq, uzatmoq, asramoq, qo‘llamoq, itarmoq kabi. Masalan: Dilshod musicha iniga qo‘l cho‘zganda, so‘ri orasidan o‘tkazilgan elektr simiga tegib, yerga qulagan edi (“Gazetadan”).

3. Sifat so‘z turkumida. Ingliz tilida: *touched, touching, touchy, feel-good, touch-and-go*: Masalan: Cautiously her fingers felt the ground around her and touched the cold steel barrel (John Sass, “Field & Stream”, 3 Aug. 2023) [7]. O‘zbek tilida: tegishqoq, tegishlicha, qo‘llangan, ushlangan, tegingan kabi. Masalan: Obidjon yumaloq, kalta bo‘yin yigit bo‘lib, yoshlikdan sho‘x, gapidan tegishqoq o‘sgan (I.Rahimov. Barno, 56-b.) [6]. Ingliz tilida teginish sezgisini ifodalovchi “*touch*” va “*feel*” so‘zlari bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning har biri teng his-tuyg‘ularni bildirish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan, *Your painting touched me* (Bo‘yog‘ingizning tekkanini his qilyapman). – *Feel the softness of this material* (bu matoning yumshoqligini qarang). Ushbu ikki gapda fe’llar bir-birining mazmunini to‘ldirib kelyapti. Bundan tashqari, teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning mazmuniy mavzu guruhlari, ular o‘rtasidagi ma’noviy munosabatlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning arxisemalariga asoslangan quyidagi mazmuniy guruh (to‘da)lariga ajratamiz:

Tahlil va natijalar (Analysis and results) 1. Teginish hissini jismoniy aloqada ifodalovchi leksemalar guruhi. Ingliz tilida: *communication, contact, feel, taste, blow, brush, caress, collision, contingence, crash, cuddling, embrace, feel, fondling, graze, grope, handling, hit, hug, impact, junction, kiss, lick, manipulation, nudge, palpation, pat, peck, perception, percussion, petting, push, rub, rubbing, scratch, shock, stroking, tap, touching, taction, brush, caress, feel, handle, hit, kiss, lick, pat, reach, rub, strike, stroke, tap, abut, adjoin, border, communicate, contact, converge, dab, examine, finger, fondle, frisk, glance, graze, grope, inspect, join, line, manipulate, march, massage, meet, neighbor, osculate, palm, palpate, partake, paw, percuss, pet, probe, push, scrutinize, sip, smooth, suck, sweep, tag, taste, thumb, tickle, tip, verge, beincontact, button, cometogether, feelup, impingeupon, layafingeron, manhandle, toywith*; For example: 1) But the four Glatzel siblings are scattered and rarely keep in contact. (Laura Zornosa, TIME, 18 Oct. 2023) [8]; 2) He was stuck in acres of thorny brush Cooper had to ask for help in a rush. (Ella Gonzales, Fort Worth Star-Telegram, 21 Feb. 2024) [4]. O‘zbek tilida: to‘qnashuv, quchoqlamoq, his qilish,

paypaslash, ishlov berish, urish, o‘pish, yalash, ergashtirish, surish, itarish, ishqalash, silash, teginish, suyanmoq, aloqa, zarba, erkalash, tutashmoq, birlashmoq; Masalan: 1) Qarshi darvozasidan uch farsax narida ikki tomon sarbozlari to‘qnashib, bir muddatlik to‘s-to‘palon jangdan so‘ng, buxoroliklar tor-mor etildi (Mirmuhsin. Me’mor, 26-b.); 2) Men hozirgina terilgan lolalarni quchoqlab, o‘rnimdan turdim (Maqsud. Guldasta, 17-b.).

2. His etish darajasini ifodalovchi leksemalar. Ingliz tilida: *bit, dash, detail, hint, scent, shade, taste, tinge, trace, whiff, drop, inkling, intimation, jot, pinch, smack, smattering, speck, spot, streak, suggestion, suspicion, tincture,small amount, soupson*; For example: 1) There have been a lot of bits of luck along the way but a lot of it has been about sticking at it.(Luke Leitch, “Vogue”, 30 Oct. 2023). 2) What happens in the U.K. can give the rest of the world hope-or dash them (Sarah Zhang, “The Atlantic”, 3 Aug. 2021). O‘zbek tilida: hid, ta’m, isi, bo‘yi, batafsil, belgi, ishora, soya, rang, iz, hidlash, tomchi, chiziq, taklif, shubhalnish, damlama, kichik miqdor. Masalan: 1) Uyda tutun yo‘qolgan bo‘lsa-da, achchiq hid darrov uning burniga urildi (Oybek. Tanlangan asarlar, 67-b.) [14]; 2) Katta osma lampa tutabroq yonganidan, do‘konxonadan is va qurum hidi bilan to‘lgan havo darrov dimoqqa urar edi (Oybek. Tanlangan asarlar, 77-b.) [13].

3. Teginish usulini ifodalovchi leksemalar. Ingliz tilida: *ability, approach, communication, contact, effect, familiarity, flair, hand, influence, knack, skill, style, talent, technique, understanding, acquaintance, adeptness, adroitness, art, artistry, awareness, characteristic, command, deftness, direction, facility, faculty, finish, handiwork, mastery, virtuosity, way*; For example: 1) It is one that has to convince voters of its competence and ability to deliver (Times, “Sunday Times” (2013); 2) That is what negates the effectof the lack of gravity (“Anchorage Daily News”, 23 June 201). O‘zbek tilida: masofa, qobiliyat, yondashuv, aloqa, ta’sir, yaqinlik, qo‘l, mahorat, uslub, iste’dod, texnika, tushunish, tanishish, xabardorlik, xarakterli, yo‘nalish, qulaylik, yo‘l. Masalan: O‘rdagacha bir yarim chaqirim chamasi yo‘l bo‘lib, Sultonali bu masofani o‘n besh daqiqa ichida bosdi (A.Qodiriy. Mehrobdan chayon, 55-b.) [2]; 2) meni afsun bilan ham rom qilib bo‘lmaydi, menga zahar ham ta’sir qilmaydi, gap ham! (Mirmuhsin. Me’mor, 78-b.).


4. Teginish ta’sirini ifodalovchi leksemalar. Ingliz tilida: *affect, disturb, excite, grab, impress, influence, inspire, mark, move, stir, strike, stroke, upset, arouse, carry, melt, quicken, soften, stimulate, sway, feel out, get through to, get to, make an impression, strike a chord, tug at the heart*; For example: 1) One major influence on the location of planned improvements has been land ownership and inheritance patterns (Cloke, “Paul J (ed) Rural Land-Use Planning”); 2) The Rolls Royce of vacuums is a gift that will exciteanyone on your list (Jaimie Potters, “Harper’s BAZAAR”, 6 Dec. 2022). O‘zbek tilida: bezovta, tortmoq, qatnashmoq, harakat, aralashma, xafa, eritmoq, tiriltirmoq, yumshatmoq, rag‘batlantirmoq, chayqalmoq, taassurot; Masalan: Bezovta shamol birdaniga kuchayib, qora bulut pardasini surib keldi (M.Qoriyev. Qiz uzatib borganda, 67-b.) [9]; 2) Bahordan buyon bir rag‘batingiz yo‘q. Mehnat qildingiz-ku, minnatingiz yo‘q (M.Yusuf. Osmonimga olib ketaman, 63-b.) [10].

5. Hurmatni ifodalovchi leksemalar. Ingliz tilida: *affect, consume, eat, handle, involve, concern, drink, interest, use, utilize, be a party to, be associated with, bear on, bear upon, belong to, center upon, concern oneself with, deal with, get involved in, partake of, pertain to, refer to*; For example: People who consume sugar-free drinks will eat more food to make up for the missing energy, a study suggests (Times, “Sunday Times“ (2016); 2) Just not enough interesting ones to justify its length (Times, “Sunday Times” (2016). O‘zbek tilida: jalb, tashvish, qiziqish, foydalanish, qo‘pollik, tegishish, ishtirok, iste’mol, tegishli, murojaat; Masalan: 1) Ertaknamo bu hangoma qaysi mamlakatda, qaysi zamonda bo‘lganiga hurmatli jurnalxonlar qiziqishlari tabii (“Mushtum”); 2) xotinlar o‘z to‘ylarini O‘zbek oyim ishtiroki bilan o‘tkazib olsalar, o‘zlarini shaharning eng baxtli xotinlaridan sanab ...yurar edilar (A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.78-b.) [1].

6. Zikrni ifodalovchi leksemalar: *cover, go over, mention, discuss, note, treat, allude to, bring in, deal with, refer to, speak of*; For example: 1) She mentions in her book that she had a miscarriage and talks about being made redundant(Times, “Sunday Times” (2016); 2) The two discussed the scandal, but Murphy did not want to speak about it too much (Noah Goldberg, “Los Angeles Times”, 29 Jan. 2024). O‘zbek tilida: zikr qilish, muhokama qilish, eslash, yod etish, muomala qilish, murojaat qilish, gapirish: 1) Ayniqsa, quyidagi zikr qiladigan holimiz bu ikki opa-singilning xarakteridagi farqlarini ochib ko‘rsatish uchun yetadir (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar, 64-b.) [1]; 2) eslatma ham og‘zaki, ham yozma tarzda bo‘lishi mumkin. (“Mushtum”).

7. Minnatdorchilikni ifodalovchi va ma’qullovchi leksemalar: *greatefull, approach, come to, amount, equal, match, meet, parallel, rival, tie, be a match for, be in the same league, be on a par, come near, come up to, hold a candle to, measure up, partake of, verge on*; For example: And for both, she is

owed the thanks of a grateful nation (Rochelle Riley, "Detroit Free Press", 20 Apr. 2018) [15]. O'zbek tilida: mamnun, minnatdor, qulluq, bo'ysinish; Masalan: Ergash mamnun jilmayib, Sottining yelkasiga qo'lini qo'ydi (I.Rahim. Chin muhabbat, 87-b.) [5]. Tilning boyligi ko'rsatkichlaridan biri undagi bir leksemani bir necha usullarda ifodalash imkonini beradi. Shuningdek, kvazima'nolar (qisman yoki noaniq)ning mavjudligidir. Shunday so'zlardan mos ravishda qo'shimcha ma'no nozikliklari, hissiylik, ekspressivlik, stilistik jihati bilan farq qilishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, ingliz va o'zbek tillarida teginish hissini ifodalovchi idrok elementlarini ifodalovchi guruhlarga bo'lib chiqdik.



3.3.2-chizma. Teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarni yadro va periferiyaga ajratish diagrammasi.

Yuqorida zikr qilingan mulohzalarga tayangan holda ta'kidlash mumkinki, ingliz va o'zbek tillarida teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning yadrosi til egalari uchun faol assosiasiya hosil qiladi, kamroq ahamiyatga ega bo'lganlari esa dominantidan joy oladi va markazdan uzoqlashgan sari ular (assotsiatsiya)ning ma'nosi ham susayib boradi. Ingliz va o'zbek tillarida teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning yadrosi sifatida so'zlovchi ongida hosil bo'lgan asosiy tushuncha (tasavvur) tan olinadi. Uning dominantini esa periferiyalarning kognitiv xususiyatini baholaydigan va izohlab, talqin qilib bera oladigan maydon hosil qiladi [16].

Ingliz va o'zbek tillarida teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning pragmatik xarakteri inson tabiatini, uning hissiyotlarini va umumiy psixik holatini tushunishda ham namoyon bo'ladi. Bunda teginish sezgisini ifodalovchi so'zlar yoki so'z birikmalari ko'plab hissyot va tuyg'u elementlarini ifodalashi mumkin.

Qayd qilish lozimki, o'zbek tilida teginish hissi o'ziga xos xususiyat, oshkoralik belgisidir, bu, ko'pincha, ma'lum harakatlarni amalga oshirish ko'rinishida isbot talab qiladi, u badiiy adabiyotdan olingan misollar bilan tasdiqlanadi. Teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning dominanti o'zining jismoniy yoki ruhiy olamini ochiq ko'rsatish, shuningdek, o'zining kuchsizligini namoyon qilishdir. Boshqa tarafdan, teginish sezgisini ifodalovchi leksema ba'zan o'zining ustunligini isbotlash uchun amalga oshiriladigan harakatlar bilan munosabatda bo'ladi.

Ingliz va o'zbek tillarida teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning uzoq periferiyalari uni masofadan ushlash, his qilish qobiliyati obrazining ajralmas xususiyati hisoblanadi [3].

Teginish sezgisini ifodalovchi leksemalari nutqda turli stilistik vosita sifatida ham qo'llanishi mumkin. Masalan, bu leksemalardan metaforik va metonimik modellar yasash orqali nutqda qo'llash mumkin.

Masalan, "His etmoq yoki his qilmoq" metaforik modelini inson tuyg'u, sezgi qobiliyati bilan idrok qilish obekti sifatida yuzaga chiqaradi. Masalan: Yodgor yelkasida qizning kaftidan o'tayotgan haroratni his qilar ...yuragi hayajondan gupillab urar edi (O'.Hoshimov. Qalbingga quloq sol, 15-b.) [11].

Metaforik modellar bilan bir qatorda, "teginish sezgisi – inson (odam)" tipidagi metonimik modellar ham qo'llaniladi. Masalan: Uning hazilona teginishida tahlika, sarosima yoki "ajab bo'ldi!" degan bir ma'no, bir his yo'q edi (Oybek. Navoiy, 46-b.). Ushbu misoldan ko'rinib turibdiki, "teginish" leksemasi simmetrik munosabatda kelyapti.

Teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning barcha turlari asosiy informasiya tashuvchi yetakchi fe'l semantikasi va fe'l shakli asosida shakllanadi. Pragmatika esa turli nutq elementlarini – nutqda qo'llaniladigan yordamchi vositalar, menimcha, ehtimol, hayriyatki, albatta, axir, ham kabi vositalarning mohiyatini chuqurroq tahlil qilish bilan shug'ullanadi.

Yuqorida zikr qilingan mulohazalarga tayangan holda ta'kidlash mumkinki, teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning turli so'z turkumlariga mansub bo'lgan so'zlardan tashkil topgan bo'lib, unga yondash bo'lgan konnotativ ma'nolarni ham ifodalab, o'zining pragmatik xususiyatlarini namoyon qiladi. U nutqda qo'llanganda pragmatik xarakteri (konnotativ ma'nosi) doim unga hamroh sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning hosil qiluvchi lisoniy birliklarning statistik tahlili asosida quyidagi jadvalni ishlab chiqdik.

Qiyosiy tahlillarimiz natijalari yuqorida sanab o'tilgan teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning bir tilda o'zlarining umumlisoniy jihatlari bilan bir qatorda, ma'lum izomorfik (o'xshash) va allomorfik (noo'xshash) jihatlari mazkur invariant til birliklar bilan bevosita bog'liqdir. Bunday jihatlarni tahlil qilish sanab o'tilgan leksik vositalarning qanday lisoniy maqomga ega ekanligini ko'rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning o'rganish jarayoni murakkab va ko'pqirrali hodisa sifatida turlicha ilmiy va fan yo'nalishlari doirasida tadqiq qilinar ekan, ushbu yo'nalishlarning ko'zga ko'ringan va tanilganlari quyidagilardir: 1) psixo-fiziologik; 2) falsafiy; 3) ijtimoiy-madaniy; 4) lisoniy kabilardir.

Teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning o'zgarishiga kontekstdagi boshqa bir konseptual strukturaning ta'siri sabab bo'lishi mumkin. Demak, mazmunning situativ (kontekstual) darajaga va u reprezentasiya qilayotgan vaziyatga bog'liq bo'lishi muayyan formatdagi bilimlarni, va ayniqsa, konseptual darajadagi murakkab model bo'lgan tushunchaning konseptual-taksonomik modelini tasvirlashda muhim aspekt hisoblanadi. Bu esa taksonomik modeli strukturasi qotib qolmagan, dinamik struktura ekanligini anglatadi va u orqali konseptual darajadagi ichki va konseptlararo aloqalar amalga oshadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, teginish sezgisini ifodalovchi leksemalar ingliz va o'zbek tillarida nafaqat jismoniy idrokni, balki abstract va madaniy tushunchalarni ham ifodalaydi. Lingvokognitiv yondashuv bu leksemalarning inson tafakkuridagi konseptual asoslarini ochib bersa, lingvokulturologik yondashuv ularning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). A.Qodiriy. O'tkan kunlar. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. 78-bet.

(2). A.Qodoriy. Mehrobdan chayon. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. 55-bet.

(3). Bo'ronov J. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1973, 283-bet.

(4). Ella Gonzales. Fort Worth Star-Telegram, 21 Feb. 2024.

(5). I.Rahim. Chin muhabbat. Toshkent, Yosh gvardiya, 1975. 87-bet.

(6). I.Rahimov. "Barno". Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.

(7). John Sass. "Field & Stream", 3 Aug. 2023.

(8). Laura Zornosa. TIME, 18 Oct. 2023.

(9). M.Qoriyev. Qiz uzatib borganda. Toshkent: Yosh gvardiya, 1976. 67-bet.

(10). M.Yusuf. Osmonimga olib ketaman. Toshkent: Sharq, 1998. 63-bet.

(11). O'.Hoshimov. Qalbingga quloq sol. 15-bet.

(12). Oybek. "Ulug' yo'l". Toshkent: Sharq, 1967. 45-bet.

(13). Oybek. Tanlangan asarlar. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. 77-bet.

(14). Oybek. Tanlangan asarlar. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. 67-bet.

(15). Rochelle Riley, "Detroit Free Press", 20 Apr. 2018.

(16). Yusupov U.K. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. Toshkent, "Fan",2007, c. 4–9.

Turdiyeva Iroda Komilovna (Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani 42-umumta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi; e-mail: imonatur2016@gmail.com)

IJTIMOIY TARMOQ TILINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar tilining noyob xususiyatlari, jumladan, qisqartmalar, emojilar, slanglar va boshqa elementlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot muammosi sifatida raqamli muloqotning tilga ta'siri va uning evolutsiyasi belgilangan. Dolzarbligi zamonaviy jamiyatda ijtimoiy media platformalarining tilni shakllantirishdagi markaziy o'rni bilan bog'liq. Metodologiya sifatida lingvistik tahlil, korpus tahlili va adabiyotlar sharhi qo'llanilgan. Natijalarda ijtimoiy tarmoq tilining dinamikasi, informalligi va mahalliy (o'zbek tilidagi) kontekstdagi o'zgarishlar yoritilgan. Muallifning ilmiy hissasi – o'zbek tilidagi ijtimoiy tarmoq matnlariga oid empirik misollar orqali mahalliy lingvistik tendensiyalarni ochib berish.*